

RELIGIOUS AND SPIRITUAL SOURCES OF TAZKIRA "NASAYIM UL-MUKHABBAT"

Sevara Ulugbekovna PARMONOVA

PhD student

Tashkent State University

of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

Tashkent, Uzbekistan

"NASOYIM UL-MUHABBAT" TAZKIRASINING DINIY-IRFONIIY MANBALARI

Sevara Ulug'bek qizi PARMONOVA

Doktorant (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Toshkent, O'zbekiston

РЕЛИГИОЗНО-ДУХОВНЫЕ ИСТОЧНИКИ ТАЗКИРЫ "НАСАЙИМ УЛЬ-МУХАББАТ"

Севара Улугбековна ПАРМОНОВА

Докторант (PhD)

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан parmonova.sevara@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Parmonova S.U. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasining diniy-irfoniiy manbalari.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 3. — B. 280-293.

<https://doi.org/10.36078/1751139858>

Received: April 12, 2025

Accepted: June 17, 2025

Published: June 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. This article examines *Nasāyim al-muḥabba*, one of the major works in the spiritual and literary legacy of Alisher Navoi, through the lens of literary and religious analysis. The study explores the ideological and artistic foundations of this *tazkira* by referencing Quranic verses and authentic hadiths. Mystical concepts, biographical narratives of saints, and elements of spiritual philosophy presented in the work are analyzed in close connection with Islamic sources. *Nasāyim al-muḥabba* is a creative and interpretative rendering of *Nafahāt al-uns*, the *tazkira* authored by Navoi's spiritual mentor, Abdurahman Jami. In composing his work, Navoi frequently draws upon Quranic verses and the sayings (hadiths) of the Prophet Muhammad (peace be upon him), at times repeating them to emphasize and deepen the text's ideological content. The article identifies key factors that shape the spiritual and philosophical worldview expressed in the *tazkira*, focusing on selected Quranic and hadith references. Additionally, it examines Navoi's Sufi perspective by tracing the foundational religious and didactic ideas embedded in the work.

Keywords: Navoi; *tazkira*; Quran; hadith; Prophet Muhammad; Sufism; *murshid*; *murid*; pilgrimage.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot-maqola uchun Alisher Navoiy merosining yirik namunalaridan biri — "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim-il futuvvat" tazkirasi tadqiqot obyekti sifatida olingan. Tazkiraning mazmun-mohiyati uning g'oyasi shakllanishiga asos bo'lgan manbalar — Qur'on oyatlari va sahih hadislar asosida tadqiq etilgan. Asarda qo'llanilgan tasavvufiy tushunchalar, avliyolar haqidagi biografik ma'lumotlar va irfoniiy g'oyalar islomiy manbalar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilingan. "Nasoyim ul-

muhabbat” tazkirasi Alisher Navoiyning ustози Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” tazkirasining erkin — ijodiy tarjimai bo‘lib, tazkirani yozishda, Navoiy, ko‘pgina o‘rinlarda Qur‘on oyatlariga, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislariga tayangan. Ba‘zi o‘rinlarda bunday oyat va hadislar qayta-qayta keltirilgan va butun tazkira bo‘ylab g‘oyaviy ma‘noni boyitishga xizmat qilgan. Mazkur maqolada Qur‘oni karimdagi ayrim oyatlar va hadislar sharh va tahlillariga asoslanib, tazkiradagi irfoniy qarashlarning — tafakkurning shakllanish omillari aniqlanadi. Shu bilan birga, Navoiy ijodidagi diniy-ma‘rifiy tafakkurning manbaviy asoslarini aniqlash orqali adibning tasavvufga oid qarashlari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Navoiy; tazkira; Qur‘on; oyatlar; payg‘ambar; hadis; so‘fiy; murshid; murid; ziyorat.

Аннотация. В данной статье рассматривается одно из значительных произведений духовного наследия Алишера Навои — тазkira “*Насоим ул-мухаббат мин шамоим ул-футууват*”. Содержание и идейная направленность этого произведения исследуются в контексте источников, послуживших основой для формирования его концепции, — аятов Корана и достоверных хадисов. Суфийские понятия, биографические сведения о святых и духовно-философские идеи, представленные в тазкире, анализируются во взаимосвязи с исламскими источниками. “*Насоим ул-мухаббат*” является вольным художественным переводом тазкиры “*Нафахот ул-унс мин хадарат ул-кудс*”, принадлежащего перу учителя Навои — Абдурахману Джами. При создании своего труда Навои в ряде случаев опирался на аяты Корана и хадисы пророка Мухаммада (с.а.с.), которые в некоторых местах повторяются, усиливая идейную наполненность всего произведения. На основе анализа ряда коранических аятов и хадисов статья выявляет основные факторы формирования духовно-философского мышления, представленного в тазкире. Также проводится анализ суфийских воззрений поэта через исследование источников религиозно-просветительской мысли в его творчестве.

Ключевые слова: Навои; тазkira; Коран; стихи; пророк; хадис; суфий; муршид; мюрид; паломничество.

Kirish

Mumtoz adabiyotimizdagi muayyan asarlar xalq qalbining ifodachisi sifatida tuprog‘imizda tug‘ilib, inson kamoloti masalalariga hissa qo‘shgan ko‘plab mutafakkir va orif kishilar hayoti va ularning faoliyati haqidagi qimmatli ma‘lumotlarni o‘zida saqlagan ulkan bir qomusdir. Bunday qomusiy asarlar mualliflaridan biri, albatta, Alisher Navoiydir. Navoiyning shaxsiyati, ilmiy-ma‘naviy merosi, diniy va dunyoviy masalalardagi chuqur bilimi o‘z davrida zamondoshlari tomonidan ham alohida e‘tirof etilgan. Xususan, XV asr fors-tojik tarixnavislik maktabining yirik vakillaridan bo‘lgan Xondamir o‘zining “Makorim ul-axloq” asarida Navoiy haqida batafsil to‘xtalib, uning fazilatlarini, ilmiy salohiyati va ma‘naviy komilligi haqida ijobiy ta‘rif beradi. Muallif asarning muqaddima qismini “Oliyjanob xulqlar fazilati va dunyo ulug‘lari pushti panohining saodatli tug‘ilishi haqida” deb nomlaydi hamda Alisher Navoiyning dunyoga kelishini yangi oy chiqishi bilan tenglashtiradi:

*Ko'ngil bog'ida bir nihol ko'kardi,
Jon osmoniga yangi bir oy chiqdi* [Хондамир, 2015].

Xondamir Navoiyning tug'ilgan yili haqida yozar ekan, Alisher Navoiyni ko'klarga ko'tarib, uning fazilatlarini shunday e'tirof etadi: "...boshqalarni tog'ri yo'lga boshlash qobiliyatiga ega bo'lgan. sifat va pok niyatli, saltanatning ustuni va mamlakat tayanchi, xoqonlik davlati suyanchig'i va Hazrati sultonning eng yaqin kishisi bo'lgan ul oliy Hazrat tovuq yiliga to'g'ri keluvchi (hijriy-qamariy) sakkiz yuz qirq to'rtinchi yil ramazon oyining o'n yettinchi kuni yo'qlik dunyosidan borlik olamiga qadam qo'yib, o'zining go'zal va porloq chehrasi ulug'ligi bilan yer yuziga zeb-ziynat bag'ishladi" [Хондамир 2015].

Alisher Navoiy ijodida islomiy ma'naviyat va irfoniy tafakkur masalalari alohida o'rin tutadi. Xususan, "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim il-futuvvat" asari orqali shoir o'z zamonasidagi tasavvufiy an'analarni chuqur tahlil qilgan, avliyo siymolari orqali ruhiy komillik g'oyasini ilgari surgan. Mazkur tazkira nafaqat biografik manba, balki diniy-estetik asar namunasining yaqqol ifodasidir. Navoiy ushbu tazkirani hayotining so'nggi davrida 1495-yili yozgan edi. Umrning bu davrini u "Xazoyin ul-ma'oni" devoni debochasida "Umr faslining qishi" deb ham ataydi: "Qirq beshdin — oltmish yaqinig'achakim tayin qilsa bo'lg'aykim bu fusulning qishidurkim, kishining ham qad bila adam yo'lig'a kirib, zamon ahli bila xayrbod qilishidur" [Navoiy 2013].

"Nasoyim ul-muhabbat" Navoiyning hayotlik chog'ida shogirdi Darvesh Muhammad Taqiy tomonidan 1495–1496-yillarda ko'chirilgan bo'lib, bugungi kungacha Sharq-u G'arbda keng qiziqish bildirilgan asarlardan biri hisoblanadi. Xususan, O'zbekistonda tazkira bir necha bor, dastavval, Navoiyning o'n besh jildlik asarlar to'plamining o'n beshinchi jildida [Navoiy 1968] asarning beshdan bir qismi, keyinchalik Turkiyada Kamol Eraslon tomonidan 1979 va 1996-yillarda nashr etilgan tanqidiy matn [Eraslon 1996] asosida yigirma jildlik mukammal asarlar to'plamining o'n yettinchi jildida [Навоий 2001] hamda 2013-yili nashrdan chiqqan o'n jildlik to'la asarlar to'plamining o'ninchi jildida [Navoiy, 2013] to'liq holatda nashr etilgan. Biroq yuqoridagi barcha nashrlar matn va ko'chirishdagi qator kamchiliklarga ega bo'lgan. Tazkiraning nisbatan to'liq va kamchiliklarsiz so'nggi nashri Hamidxon Islomiy tomonidan 2017-yili ilmiy-tanqidiy matn asosida kiril yozuviga tabdil etilgan nashr hisoblanadi [Навоий 2017].

Asosiy qism

Tazkirachilik an'anasi mumtoz adabiyot doirasidagi eng salmoqli, qiziqarli va muhim hodisalardan biri hisoblanadi. Tazkira so'zi arab tilidan tarjima qilinganda esdalik daftari degan ma'noni bildiradi. Tazkiralarda muayyan kishilarning hayoti, faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Tazkiralarda mavzu doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin, masalan, avliyolar haqidagi tasavvufiy tazkiralarda ("Tazkirat ul-avliyo", "Nasoyim ul-muhabbat"...), shoirlar haqida adabiy tazkiralarda ("Tazkirat ush-shuaro"...), va boshqalar.

Ayrim tazkiralarning boshqasini nisbatan takrorlagan holatlari ham ba'zan uchrab turadi, xususan, bu forsiy va turkiy tillaridagi tazkiralarning tarjimalarida kuzatiladi. Ammo bunday tarjima asarlarni ham to'raligicha tarjima deb emas, balki erkin tarjima deb atash maqsadga muvofiq. Bunday asarlarda tarjimon faqat o'zidan avvalgi davrda yashab o'tgan shoir-yozuvchilar, davlat arboblari yoki shayx va avliyolar haqidagina emas, o'z davrida yashayotgan zamondosh olim-u fuzalolar haqida ham ta'riflar keltirgan holatlari ko'p uchraydi. Buni Alisher Navoiy va Jomiy tazkiralari misolida ham ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy garchi ustoz-shogirdlik an'anasiga ko'ra dastlab Jomiyning "Nafahot ul-uns min hazorat ul-quds" tazkirasining yaratilishida tashabbuskor bo'lgan va keyinchalik ushbu tazkirani forsiy tildan tarjima qilishga kirishgan bo'lsa ham, amalda tazkirani mukammallashtirib, unga o'z dastxatini bosa olgan va mustaqil tazkira holiga keltirgan. Bu masalaga e'tibor qaratgan adabiyoshunos Nodir Ramazonovning "Nasoyim"ning o'ziga xos xususiyatlariga doir" deb nomlangan maqolasidagi fikrlariga ko'ra, Jomiyning "Nafahot ul-uns" asaridan olti yuz o'n oltita shayxning tarjimaiy holi o'rin olgan. Navoiy Jomiy asaridagi oltinchi tarjimaiy holni qisqartiradi. Biroq "Nafahot ul-uns"da tilga olinmagan ikki yuz o'n to'rt shayx hayoti haqidagi ma'lumotlarni qo'shib, "Nasoyim"da zikr etilgan shayxlar sonini yetti tuz yetmish nafarga yetkazadi. Ulardan o'ttiz besh nafari ayol avliyolardir [Ramazonov 2001: 159].

Alisher Navoiy, garchi Jomiyning tazkira yozishga undagan, bu ishga o'zi bosh-qosh bo'lgan bo'lsa ham, keyinchalik turkiyzabon xalq uchun ham diniy-tasavvufiy, ham axloqiy-ma'rifiy mohiyat kasb etgan shunday bir asarning turkiy tilda ham mavjud bo'lishini istaganini yozadi. "Nafahot ul-uns" yaratilganidan yigirma yil o'tgach bu ishni amalga oshirgan muallif, o'z tazkirasiga tasavvuf vakillari hayoti va faoliyati haqidagi eng muhim va ishonchli ma'lumotlarni kiritadi.

Alisher Navoiy nafaqat yetuk alloma, shoir, mutafakkir olim, balki islom dinining chuqur bilimdoni, tasavvuf an'analari va usullaridan yaxshigina xabardor bo'lgan. Faoliyatida, asarlarida naqshbandiya tariqatiga e'tiborli bo'lgani seziladi va muayyan ahamiyatga ega. Jomiyning rahnamoligida 1476-yillari tasavvufga oid ilmlarni, ko'plab asarlarni o'rganganligini Navoiyning o'zi e'tirof ham etadi.

Navoiy islom tasavvufida aynan naqshbandiya tariqati orqali yo'l tutgani, buni o'z ijodiga ham singdirganini anglash qiyin emas. Sultonmurod Olim naqshbandiylik va Navoiy masalasiga bag'ishlangan maqolalaridan birida Navoiy ijodiga naqshbandiylikning ta'sirini shunday izohlaydi: "Islom ta'limoti Navoiy uchun bir bepoyon dengiz bo'lsa, tasavvuf suvini ana shu dengizga quyadigan bir daryo yanglig' edi. Naqshbandiya tariqatini esa ana shu daryoning eng katta irmog'iga o'xshatish mumkin." [Olim 2013: 161].

Umuman olganda, Navoiyning diniy-tasavvufiy ilmi, so'fiylikka munosabati uning deyarli barcha asarlarida uchratish mumkin bo'lgan Qur'on va hadis manbalari orqali ham yaqqol namoyon bo'ladi. Buni "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Aytish mumkinki, "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasi shakliy jihatdan adabiy-badiiy asar bo'lsa-da, aslida, uning mazmun-mohiyati chuqur

diniy-ma'rifiy ruh bilan sug'orilgan. Tazkiraning g'oyaviy asosini belgilovchi eng muhim manbalar qatorida birinchilardan bo'lib Qu'roni karim va hadislarining kelishi ham fikrimizning isbotidir.

Qu'roni karim islom dinining muqaddas kitobi, islom dini tafakkurining asosiy manbasi bo'lib, bu kitob so'fiylar uchun ham ruhiy yo'lining bosh, ko'rsatkich nuqtasi hisoblanadi. Ya'ni unda kelgan oyatlar tasavvuf yo'li — tariqat vakillari uchun ruhiy-ma'naviy poklik, shukur, sabr, riyozat, tavakkul, ilohiy muhabbat kabi tushunchalarni mustahkamlashga asos bo'lgan. "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasida nomlari keltirilgan aksariyat shayx-avliyolar ham Qur'onni faqat zohiriy mazmunda emas, balki qalban — botiniy idrok etgan siymolardir. Navoiy ham asarning g'oyasini aynan Qur'on va payg'ambarlar sayyidi Muhammad sollallohu alayhi va sallamning yo'llari — sunnatga tayangan holda tuzadi.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat"ga ilova qilgan muqaddima "Bu toifa sulukida muqaddima tamhidi" va "Bu toifa a'molu af'oli va muomilatu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq" deb nomlangan ikki qismdan iborat. Birinchi qismda uch o'rinda Qur'on oyatlari va bitta Hadisi qudsiydan misol keltirilgan. Xususan, Alloh taolo maxluqotlar ichida Odam farzandidan buyukroq va sharafliroq maxluqot yaratmaganligini isbotlovchi ushbu ikki oyat:

وَلَقَدْ كَرَّمْنَا بَنِي آدَمَ وَحَمَلْنَاهُمْ فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ وَرَزَقْنَاهُمْ مِنَ الطَّيِّبَاتِ وَفَضَّلْنَاهُمْ عَلَى كَثِيرٍ مِّمَّنْ خَلَقْنَا تَفْضِيلًا
أَبَيِّنَ أَنْ يَحْمِلْنَهَا وَأَشْفَقْنَ مِنْهَا وَحَمَلَهَا الْإِنْسَانُ.

Alloh tabaroka va taolo aytdi: **"Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini aziz-mukarram qildik va ularni barru-bahrda — quruqlik va dengizda (otulov va kemalarga) chiqarib qo'ydik"** (*Isro*, 70) va **"Alloh taolo aytdi: "Albatta Biz bu omonatni (ya'ni Shariati islomiyatdagi toat-ibidatlarni) osmonlarga, yerga va tog'-u toshlarga ko'ndalang qilgan edik, ular uni ko'tarishdan bosh tortdilar va undan qo'rqdilar. Inson esa uni o'z zimmasiga oldi."** (*Ahzob*, 72) [Навоий 2017: 28] kirish qismining boshida keladi va Navoiy *"Men yashirin xazina edim. O'zimni tanitishni xohladim va bilishlari uchun borliqni yaratdim"* mazmunidagi Hadisi qudsiyni ham bularga ilova qiladi.

Alisher Navoiy fikrini davom etar, Odam farzandlari orasida ayrim nomaqbul ishlar qiluvchilar ham ko'payganligi sababidan Alloh taolo buning islohi uchun ayrim tanlangan bandalarining boshiga nubuvvat tojini kiydirib, beliga hidoyat kamarini bog'lab, ularga hokim qilganini yozadi. Bu nubuvvat eshigi Muhammad sollallohu alayhi va sallamdan so'ngra bog'langanligi, lekin *"Ummatimning ulamolari Bani Isroilning payg'ambarlari kabidir va shuningdek, ulamolar payg'ambarlarning merosxo'rlaridir"* hadisida aytilganidek, bunday ulamolar kishilarga Haq yo'lni ko'rsatish uchun toki olam inqirozga yuz tutgunga qadar yashashlarini ta'kidlaydi. Bu borada Qushayriy ham o'zining risolasida ulamolar, so'fiylar payg'ambarlardan keyingi eng aziz kishilar ekanligini ta'kidlab, shunday yozgan: *"So'fiylar Allohning tanlangan do'stlaridir va Alloh ularni payg'ambarlaridan keyingi butun qullari orasida ustun va fazilatli qilgan."* [Kuşeyri 2022: 36]

“Nasoyim ul-muhabbat”ning ikkinchi qismida ulamolar uchun xos bo‘lgan ishlar (tavba, shariat rioyati, shahodat keltirish, namoz o‘qish, zakot, ro‘za, odob, hilm, rizo kabilar) ta’riflangan. Bu ishlarining har birini so‘fiylar qanday ado etishlari, bu jarayonda o‘zlariga bir necha barobar og‘irroq bo‘lgan ma’lum talablarni qo‘yishlari haqida qiziq ma’lumotlar berilgan. Bulardan ikkinchisi bo‘lmish shariatga rioya qilish borasida Navoiy

فَاسْتَوْفُوا كَمَا أُمِرْتُمْ

(Bas, (ey Muhammad alayhissalom) o‘zingizga buyurilgani yanglig‘ to‘g‘ri yo‘lda bo‘lingiz!) (*Hud*, 112) oyati nozil qilinishi vaqtida bir kechada Hazrat Risolatning soqollarida bir nechta oq tolalar paydo bo‘lganligi va bundan avvalgi kunda hazratni birorta ham oq soqolsiz ko‘rgan sahobalar bundan juda taajjublanganligi tafsilotini yozadi. Navoiy buni dunyoda shariat rioyatidan ham mushkulroq ish yoq‘ligi, bunga amal qilish mashaqqati hatto ulug‘ payg‘ambarning ham soqollariga oq tushirgani bilan izohlaydi [Havoniy 2017: 51].

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi “Nafahot ul-uns”dan farqli o‘laroq, avliyolar sultoni deya ulug‘lanuvchi Shayx Uvays Qaraniy (594-657)ning zikri bilan boshlanadi. Navoiy ushbu zot haqida payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning “*Uvays Qaraniy ehsoni va mehribonligi bilan tobeinlarning yaxshisidir*” va Imom Ahmaddan rivoyat qilingan “*Men Rahmonning nafasini Yaman tomondan tuymoqdaman*” degan so‘zlarini keltiradi. Shuningdek, payg‘ambarimizning muraqqa‘lari (qiyqimlardan tikilgan kiyim) aynan Uvays Qaraniyga vasiyat qilinganligi va Uhud jangida Hazrat Risolatning muborak tishlaridan biri shahid bo‘lganligi va bundan ta’sirlanib, uning ham o‘z tishlarining barchasini qurbon qilganligi bayoni ham “Nasoyim”da keltirilgan. Alisher Navoiy Uvays Qaraniy haqidagi ma’lumotlarni yozishda Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asariga tayangan. Attor Uvays Qaraniyning “Rahmonning nafasi, Yaman yulduzi” deb ta’riflaydi va yuqoridagi ikki hadis va voqealar bayoni ushbu asarda batafsil bayon etilgan [Attor 2017: 27]. Zero Navoiyning o‘zi ham Uvays Qaraniy haqida kattagina bir kitob yozish mumkinligini, to‘liqroq bilishni istagan kishi esa Fariduddin Attorning tazkirasini o‘qishini maslahat bergan.

Alisher Navoiy tazkiradagi avliyolar ketma-ketligini shakllantirar ekan, ularning aynan bir davrda yashaganligiga ya’ni zamondoshligiga tayanmaydi. Avliyolar, asosan, mansub bo‘lgan tabaqalari, tariqatlari, tutgan yo‘llariga ko‘ra tasniflangan. Ayrim o‘rinlarda biror shayxning zikridan so‘ng (agar valiylikka erishgan bo‘lsa) uning farzandlari, aka-ukalari, keyin shogirlari, shogirdlarining shogirdlari ketma-ketlikda zikr qilingan.

Navoiy o‘z tazkirasining dastlabki o‘rinlarida, asosan, birinchi tabaqaga mansub bo‘lgan, sunnatga qat’iy rioya qilgan, payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamni tushlarida ko‘rgan yoki boshqalarning tushlarida u zot tomonidan e’tirof e’tilgan buyuk shayxlar nomini keltiradi. Aynan ushbu o‘rinlarda Qur’on oyatlari va qudsiy hadislardan ham ko‘plab misollarni uchratishimiz mumkin. Bu o‘z o‘rnida o‘quvchida tazkira va undagi avliyolar haqidagi dastlabki tasavvurni uyg‘otishga, shuningdek, tasavvuf yo‘lining Qur’on va sunnatga qanchalik bog‘liq ekanligiga urg‘u berishga hissa qo‘shadi.

Tazkirada Uvays Qaraniy zikridan so'ng ikkinchi–oltinchi o'rinlarda zikr etilgan avliyolar (Habib Ajamiy, Abu Xozim Makkiy, Ataba ibn G'ulom, Molik Dinor, Muhammad Vosiy) Shayx Hasan Basriy nomi bilan bog'langan. Ya'ni bu kishilar shayxning shogirdi yoki suhbatiga musharraf bo'lgan kishilar sifatida ta'riflanadi. Xususan, Molik Dinor haqida yozar ekan, Navoiy, uni “Bu toifaning akobiridindur (buyuklaridan)” deb ta'riflaydi hamda Hasan Basriy bilan suhbatda bo'lganini ta'kidlaydi. Shu o'rinda Molik Dinor tarafidan “Allohning o'z bandalariga inoyati” deya izoh berilgan ikki oyat keltiriladi:

فَاذْكُرُونِي أَذْكُرْكُمْ

(“Bas, Meni eslangiz, Men ham sizlarni eslayman”) (*Baqara*, 152) va

ادْعُونِي أَسْتَجِبْ لَكُمْ

(“Menga duo-iltijo qilinglar! Men sizlarga mustajob qilurman”) (*G'ofir*, 60).

“Nasoyim ul-muhabbat”da yettinchi va sakkizinchi tartib raqami ostida keltirilgan Abdulloh Muborak (vaf. 797-yil) hamda Abu Hoshim So'fiy (vaf. 776-yil) nomlari esa buyuk so'fiy Sufyon Savriy nomi bilan bog'langan va u bilan zamondosh hamda suhbatdosh bo'lganliklari yozilgan. Navoiy Abdulloh Muborakni “Ulamoning shahanshoi” deb ta'riflaydi. Abdulloh Muborak zikrida *A'rof surasi*, 196-oyat:

وَهُوَ يَتَوَلَّى الصَّالِحِينَ

(“U solih bandalariga yor bo'lur”) hamda *Soffat surasi*, 61-oyati:

لِمَنْ لِيْ هَذَا فَلْيَعْمَلِ الْعَمَلُونَ

(Bas, amal qiluvchilar mana shunday (mangu baxt-saodat) uchun amal qilsinlar!) keltiriladi. Ushbu oyatlar Abdulloh Muborak tilidan vafoti chog'ida aytilgan bo'lib, birinchisi — ortida qoladigan uch nafar qiziga hech qanday meros qoldirmaganligi, ularga o'zi qoldiradigan moddiy merosdan ko'ra Allohning yorligi xayrliroq bo'lishi, ikkinchisi esa, o'limni kulib, baxtli yuz bilan qarshilashining sababi abadiy jannat ekanligi ma'nosida keltirilgan. Ushbu oyatlardan birinchisi (*A'rof* 196: “U solih bandalariga yor bo'lur”) “Nasoyim”da yana uch yuz saksoninchi tartib raqami ostidagi Husayn ibn Muhammad Muso as-Sulamiy (“Tabaqot us-so'fiya” asari muallifi Abdurahmon as-Sulamiyning otasi) ta'rifidagi fiqrada ham keltirilgan. Bu o'rinda ham aynan meros masalasiga urg'u berilgan va og'il farzand ko'rgach, butun boyligini sadaqa qilib yuborgan Husayn ibn Muhammad Musoning “O'g'ling uchun hech narsa qoldirmading-ku!” degan insonlarga javobi shaklida berilgan [Навоий 2017: 255].

Navoiy bulardan so'ng o'n-o'n uchinchi o'rinlarda to'rt mazhab asoschilari bo'lmish to'rt imom (Imomi A'zam Abu Hanifa, Imom Shofi'iy, Imom Ahmad Hanbal, Imom Molik) nomlarini zikr etadi. Imom Abu Hanifa zikrida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning Anas ibn Molikdan rivoyat qilingan “*Ummatimning orasida No'mon ibn Sobit degan kishi bor, kunyasi Abu Hanifa va u ummatimning chirog'idir*” degan hadislar keltirilgan. Imomi A'zamning o'zi ham bir necha bor payg'ambarimiz (s.a.v)ni tushda ko'rganligi va ularda uning sunnatni mustahkamlovchi kishi sifatida ta'riflanganligi bayoni berilgan. Shuningdek, *Luqmon surasi*, 34-oyati Abu Hanifaning o'sha davr xalifasining tushini ta'bir qilishiga ishora sifatida keltirilgan.

Imom Ahmad ibn Hanbal zikrida esa ushbu qudsiy hadis:

خَلَقْتُ طِينَتَهُ أَدَمَ بِيَدَيَّ

(“**Odam** (alayhissalom) **tuproq’ini qo’llarim bilan qordim**”) keltirilgan bo’lib, imom o’z o’g’liga, ushbu hadisda “Yadulloh” (Allohning qo’li) so’zini o’z qo’li bilan ishora qilmagan holda aytishini ta’kidlagan.

Navoiy Qur’on oyatlarini va hadislarini o’z holida ya’ni arab tilida keltiradi. Ayrim o’rinlarda oyatlar va hadislar tog’ridan-to’g’ri keltirilmaydi, balki tazkiradagi hikoyatlar, nasihatlar ortida, ular bilan mazmuniy yondoshlikda keladi. Umuman olganda, Qur’on oyatlarida va hadislarda keltirilgan o’gitlar butun tazkira bo’ylab katta g’oyaviy yukni tashiydi. Navoiy faqatgina oyatlarni emas, yuzlab avliyolar haqidagi ma’lumotlar tarkibidagi baytlar va hikmatli so’zlardan ham arab tilida parchalar keltiradi. Shuningdek, ayrim o’rinlarda mashoyixlar o’rtasidagi suhbatlar, avliyolar ta’riflari, savol-javoblar, fikrlar, Shayx ul-islom Abdulloh Ansoriyning bu fikrlarga ba’zi izohlari ham arab tilida berilgan.

Sufyon Savriy, Ibrohim Adham va Abu Yusuf G’asuliy kabilar bilan zamondosh va suhbatdosh bo’lgan Fuzayl ibn Iyoz (vafoti tax. 803-yil) ta’rifida uning o’g’li Alining ushbu

رَى الْمُجْرِمِينَ

(“**Ey Muhammad** alayhissalom) **jinoyatchi kimsalarni zanjirband holda ko’rursiz**” (*Ibrohim*, 49) oyatini eshitgach jon taslim qilganligi, Shayx ul-islomning esa bu holatga “Kim Alloh ishqida o’lgan bo’lsa, bas, shahid bo’libdi. O’lim bilan tugamaydigan ishqda yaxshilik yo’qdir” degan mashhur baytni keltirib izohlaganligi bayoni berilgan.

Musulmonlikning bosh sharti – shahodat kalimasi:

لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ

(“**La ilaha illalloh**”)ni til bilan aytish va qalb bilan tasdiqlash ekanligini bilamiz. Ushbu kalima “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida arab tilida bir necha o’rinlarda tilga olingan va uning karomati va barokati haqida qiziq ma’lumotlar keltirilgan. Jumladan, tazkirada bir yuz o’n ikkinchi tartib raqami ostida keltirilgan Muhammad ibn Foza ta’rifida ham shahodat kalimasining karomati bilan bog’liq hikoyat keltirilgan. Unga ko’ra, Uzayzi qish kunlaridan birida ibodatda kuch-g’ayratli deb ta’riflangan Muhammad Fozaning ziyoratiga boradi va uning bitta ko’ylak bilan o’tirganiga guvoh bo’ladi. Unga: “Ey Abu Ja’far, sovg’otmaysanmi?”, deb savol berganida Muhammad Foza: “Qo’lingni ber va unga qarata “La ilaha illalloh” degin”, — deydi. So’ng uning qo’llarini o’z ko’ylagi ichiga qo’yib yana shu kalimani qaytaradi. Uzayzi uning bu jarayonda issiqdan terlab ketganini his qiladi [Навоий 2017: 101].

Kalimayi shahodatning fazilati bilan bog’liq yana bir hikoyat besh yuz yetmish oltinchi raqam ostida zikri keltirilgan Aburabbiy al-Kafif al-Molaqiy ta’rifida ham keladi. Unda Shayxning bu kalimani yetmish ming marotaba zikr qilganligi uchun bir bolaning onasi do’zax azobidan qutulganligi bayoni berilgan. Shuningdek, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Ubaydulloh Imomiy Isfahoniy, Xoja Abdulxoliq G’ijduvoni, Shayx Abubakr Kattoniy, Shayx Luqmon Saraxsiy, Abulhusayn ibn Muhammad al-Muzayyin va boshqa mashoyixlar zikrida ham shahodat kalimasining keltirilganligiga guvoh bo’lamiz.

Yuqorida aytganimizdek, “Nasoyim ul-muhabbat” tazkisasi tamoman diniy-ma’rifiy ruh bilan sug’orilgan va Qur’on oyatlari, qudsiy hadislar va Muhammad sollallohu alayhi va sallamning aytgan so’zlari deyarli barcha

avliyolar ta'rifida uchraydi. Navoiy ko'pgina o'rinlarda avliyolarning hikmatli so'zlarini ham arab tilida keltirgan — ba'zan she'riy baytlar, ruboiylardan ham parchalar kiritgan. Ayrim oyatlar va hadislarining esa bir necha bor takrorlanganligini yuqoridagi ayrim misollar orqali ko'rdik. Shunday misollardan yana biri — Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning:

اتقوا فراسة المؤمن، فإنه ينظر بنور الله

(*Mo'minning farosatidan ehtiyot bo'linglar! Chunki u Alloh azza va jallaning nuri bilan qaraydi*) ma'nosidagi hadislar “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida ikki o'rinda berilgan bo'lib, ikkisi ham o'xshash holatlar ta'rifi ichida kelgan. Birinchisi, yetmish to'qqizinchi tartib raqami ostida zikri keltirilgan Sayyid ut-toifa Junayd Bag'dodiy (tax. 830–910) ta'rifida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra, Junaydning ustoz Sarriy Saqatiy unga doimo “Majlis tut va elga so'z ayt!” der edi. Bunga ko'nmagan Junaydning tushiga bir kuni Hazrat Risolat sollallohu alayhi va sallam kiradilar va unga majlis qilishi lozimligini aytadilar. Shundan so'ng Junayd majlis qilishni boshlaydi va kunlardan bir kuni bir yigit undan yuqoridagi hadisning ma'nosini izohlab berishini so'raydi. Junayd Bag'dodiy esa unga qarata: “Iymon keltirki, Islomning vaqti yetibdur” deb javob beradi. U yigit asli tarso (nasroniy dini vakili) edi va bu javobdan ta'sirlanib darhol musulmon bo'ladi. Imom Yofi'iy bu holatda ikki karomat mavjudligini, biri Junayd savol bergan yigitning tarso ekanligini bilgani, ikkinchisi Islom vaqti yetishganini his qilgani, deb izohlagan.

Xuddi ushbu hadis ayni holatda to'rt yuz qirq ikkinchi tartib raqami ostida ta'rifi keltirilgan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (1103–1179)da ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, hazrat Xojaning Shomda juda ko'p shogirlari bor va ular bilan ko'p suhbatlar qurar ekan. Shunday subbatlarning biriga egniga xirqa kiygan zohid qiyofasidagi bir yigit kirib keladi va Xojaga yuqoridagi hadis mazmunini so'rab savol beradi. Xoja unga: “Bu hadisning sirri budurki, xirqang ostidagi zunnoringni kesib, imon kelturgaysen”, deydi va yigit bundan ta'sirlanib, darhol musulmonlikni qabul qiladi. Shundan so'ng hazrat Xoja boshqalarga ham, botindagi zunnorni (ichki manmanlik)ni kesib, shu yigit kabi gunohlardan poklanish har birlari uchun lozimligini ta'kidlaydi.

Islom dinida Allohning payg'ambarlariga imon keltirish imonning dastlabki shartlaridan biri sanaladi. Payg'ambarlar Allohning elchilari bo'lib, Allohning kalomini xalqqa yetkazib, ularni to'g'ri yo'lga boshlashga buyurilganlar. Bu haqida Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror”da shunday yozadi:

So'ngra rusulkim, neki Haqdin yetib,

Borchasini xalqqa irsol etib.

So'ngra ulul-azmki aylab jidol,

Da'vati din qilga-yu hukmi qitol [Navoiy 2006: 77].

Bu haqida *An'om surasi, 91-oyatida* ham muqaddas kitoblarni Alloh nozil qilganligi aytilgan va bunga ishonmaganlarni o'z (yo'llarida adashgan) hollarida tark etish buyurilgan. Ushbu oyat “Nasoyim ul-muhabbat”da Shayx Abu Said Abulxayr (967–1049) ta'rifida (374-o'rinda) keltirilgan bo'lib, Shayxga piri Abulfazl Hasan Saraxsiy hamda

Xoja Abu Ali Faqih tomonidan eslatilgan. Shuningdek, to‘qson oltinchi tartib raqami ostida ta’rifi berilgan Mumshod Dinovariy (tax. X–XI asr) zikrida ham ushbu oyat keltirilgan va Mumshod Dinovariy tarafidan Alloh do‘stlarini inkor qilgan kishi uchun ikki dunyoda xayr yo‘q, deb ta’riflangan. Shuningdek, Mumshod Dinovariyning “Muridning odobi mashoyixlar hurmatini o‘rniga qo‘yish, birodarlariga xizmat qilish, sabablardan chetlanish va shariat odoblarini doim o‘zida saqlashdadir” degan so‘zlari ham eslatib o‘tilgan.

Darhaqiqat, pir-murshidlarga ham ichda, ham tashqarida hurmat ko‘rsatish, ularning aytgan nasihatlariga quloq tutish, hayot bo‘lsalar o‘zlarini, agar olamdan o‘tgan bo‘lsalar, qabrlarini imkon boricha tez-tez ziyorat qilish muridlikning odoblaridan, bosh shartlaridan hisoblangan.

Ulug‘lar qabrini ziyorat qilish, bu orqali ishiga, kasb-koriga baraka so‘rash, chiroyli niyatlar qilish kabi amallar bugungi kunda ham mavjud va bu barchaga ma’lum. Bu haqida “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida ham ko‘plab o‘rinlarda eslatmalar berilgan, ya’ni:

زَارُ وَ يُبَرِّكُ بِهِ

Yuzaru va yutabarraku bihi (*Ziyorat qilinadi va u tufayli barakot umid qilinadi*) jumlasini orqali ulug‘lar qabrlarini ziyorat qilishga chaqirilgan. Dastavval, Ibrohim ibn Sitanbah Hiraviy (28-o‘rinda kelgan) zikrida bu jumlaning uchratamiz. Uning Ibrohim Adham bilan suhbatda bo‘lganligi, qabri Qavzinda ekanligi va uni ziyorat qilish tufayli barakotga umid qilinishi yozilgan. Shuningdek, to‘rt yuz o‘ttiz birinchi raqami ostida keltirilgan Abu Nasr ibn Abu Ja‘far ibn Abu Is‘hoq Hiraviy Xonchabodiy uch yuzta pirning suhbatiga musharraf bo‘lgan hamda ularga xizmat qilgan, Xizr alayhissalom bilan uchrashgan, deb ta’riflangan. Qabri Xonchabodda bo‘lib, ziyorat qilish orqali barakaga erishish mumkinligi haqidagi yuqoridagi jumla keltirilgan.

Yana shunday mashhur va ulug‘, ziyorat qilish orqali barakaga erishish mumkin bo‘lgan qablardan biri kichik yoshdan jazba holatida bo‘lgan Shayx Bahouddin Umarga tegishli bo‘lib, Hirotda joylashgan. “Nasoyim ul-muhabbat”da Shayxning zikri to‘rt yuz to‘qson sakkizinchi o‘rinda keladi. Shuningdek, Andxud qasabasida istiqomat qilgan, qabri ham shu qasabada joylashgan Bobo Sungu ta’rifida ham ushbu jumla eslab o‘tilgan. Bobo Sunguning Amir Temur bilan uchrashganligi, unga Xuroson safari oldidan g‘alabani bashorat qilganligi haqidagi ma’lumotlar bor.

Ziyorat qilishning barakaga yo‘l ochishi mumkinligi haqidagi bu jumlaning, shuningdek, Mir Koriz (657), Mavlono Tojuddin Ahmad (686), Amir Sayyid Qosim Tabriziy (713), Shayx Fariduddin Attor Nishoburiy (715), Sayyid Nosir Xusrav (727) va boshqalarning zikrlari ichida ham uchratishimiz mumkin.

Umuman olganda, **Yuzaru va yutabarraku bihi** jumlasini “Nasoyim”da asosan, hijriy 500-yillardan keyin vafot etgan avliyolar ta’riflarida nisbatan ko‘proq keltirilgan. Lekin bu faqatgina o‘sha avliyolar qabrlari ziyorati uchunгина tegishli, degan xulosani bermasligi kerak. Zero, tazkirada nomlari keltirilgan barcha mashoyixlar chin ma’noda Allohning do‘stlari bo‘lib, har qaysisining ziyoratidan barakot umid qilish lozim. Tazkirada bunday mashhur qablardan ko‘plarining nomi va joylashgan yerlari yuqoridagi jumla keltirilmasa ham sanab o‘tilgan.

Masalan, Ma'ruf Karxiyning qabri Bag'dodda bo'lib, u aholi uchun duolar mustajob bo'luvchi joy hisoblangan. Shuningdek, hatto Shayx ul-islom Abdulloh Ansoriy ham bu mashoyixlardan ba'zilarining qabrlarini tez-tez ziyorat qilib turganligi haqidagi ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. (Masalan, Abu Abdulloh Ahmad ibn Abdurrahmon Nasr Moliniyning Hirotdagi qabri.)

“Nafahot ul-uns” tazkirasida Fuzayl ibn Iyozning “Ertaga qiyomat kunida Alloh taolo quliga shunday xitob qiladi: “Ey Odam farzandi! Garchi dunyoda zuhd hayotini yashading. Lekin bu bilan faqat o'z tinchligingni talab etding. Har nedan voz kechib, faqat Men haqimda o'ylashing ham, aslida, nafsingning izzati uchun edi. Xotirjamlik uchun zuhd, izzat uchun tarki dunyo yo'lini tutding. Men uchun-chi? Men uchun nima qilding, bir do'stinga do'st, bir dushmanimga dushman bo'la oldingmi?” degan fikrlari keltiriladi [Cami 2021: 93]. Xuddi shu ma'nodagi Alloh suygan va aziz qilgan bandalariga do'st bo'lish, Allohning dushmanlariga dushman bo'lish kabi fikrlar “Nasoyim ul-muhabbat”da ham ko'plab uchraydi. Ulug' mashoyixlarga hurmatda bo'lgan, ularning aytgan so'zlaridan yod olgan, ular bilan bir majlisda bo'lgan, hech bo'lmasa, shunday kishilardan bir qanchasining ismini bilganlar ham o'sha so'fiylar, avliyolar sharafiga Allohning mag'firatiga musharraf bo'lishlari haqida tazkirada ko'plab ishoratlar bor.

Xususan, Abu Ja'far Saydaloni (205) zikrida Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning “*Har kim bularni sevar, bulardindur*” degan hadislari keltiriladi [Навоий 2017: 147]. Ya'ni Abu Ja'far Saydaloniyning tushiga Rasululloh sollallohu alayhi va sallam va bir qancha mashoyixlar kiradi. Farishtalardan biri ularning har biriga tahorat uchun suv quyarkan, Saydaloniyni “Bu toifadan emas” degan ta'kid bilan chetlab o'tadi. Shunda Saydaloniy Rasulullohga qarata: “Yo Rasululloh! Men bu toifadan bo'lmasam ham, Sizga ma'lumki, men ularning do'stlariman!” deydi va Mustafo (s.a.v.)ning tillaridan yuqoridagi hadis aytiladi. Shundan so'ng farishta ortiga qaytib, unga ham suv quyadi.

Aynan “*Har kim bularni sevar, bulardindur*” hadisi butun “Nasoyim ul-muhabbat” tazkisasi bo'ylab muhim ma'no tashiydi, deb bimalol aytish mumkin. Chunki, tazkirada nomlari keltirilgan har bir zotga ta'fir berishda ham, eng avvalo, ularning qaysi ulug'lar bilan suhbatda bo'lgani, uchrashgani, hatto, shunchaki zamondosh bo'lganiga ham urg'u berilganki, bu juda muhim sanalgan. Agar so'fiy ulug' mashoyixlar bilan yuzma-yuz uchrashgan, ular bilan suhbatlashgan bo'lsa, uning darajasi ham shunga ko'ra baland bo'lgan. Masalan, yuzdan ortiq allomaning ismi birgina Junayd Bag'dodiyning nomi bilan (u bilan subatlashgan, uchrashgan, hatto, eng kamida, uni ko'rgan kishilarni ko'rgan deya) bog'langan. Chunki bu toifaning ulug'lari bilan bir marta bo'lsa ham uchrashgan, suhbatlashgan kishilarda ruhiy-ma'naviy yuksalish bo'ladi, deb hisoblangan.

Shunday ulug' kishilardan biri, tazkirada “Iboratni ishoratga keltirgan va bu tariqat haqida so'z aytgan birinchi kishi edi” deya ta'riflangan Zunnun Misriy nomi ham yuzlab so'fiylar zikrida keladi. Ya'ni, bunday kishilar haqida tazkirada Zunnun Misriyning shogirdi bo'lgan, u bilan yuzma-yuz uchrashgan, undan nasihat olgan yoki uni ko'rgan kishilar bilan uchrashgan degan izohlar berilgan. Zunnun Misriy

ta'rifi "Nasoyim ul-muhabbat"da to'qqizinchi o'rinda berilgan bo'lib va uning:

وَشِرْكُ جَهْلٍ اَللّٰهُ بِذَاتِ الْعِلْمِ

ya'ni: *Alloh taoloning zoti haqidagi ilm johillikdir, shirkdir*, degan mazmundagi ushbu gaplari keltirilgan. Bu fikrlar yana Zunnun Misriy bilan uchrashgan Tohir Maqdisiy (146) hamda Ibrohim Dahistoniy (275)ning ham ta'riflarida Zunnun Misriydan eshitgan jumalari sifatida keltirib o'tilgan.

Shuningdek, "Nasoyim ul-muhabbat"da Junayd Bag'dodiy zikrida shunday keladi: "Bag'dod xalifasi Ruvaymga qarata "Ey beadab!" dedi. Ruvaym dediki, "Yarim kun Junayd bila suhbat tutubmen, nechuk meni beadab degaylar?" ya'ni har kishikim Junayd bilan yarim kun suhbat tutmish bo'lg'ay, ondin tarki adab kelmag'ay." Yana shunday misollardan birini Abualabbos Surayj (181) ta'rifida ham uchratishimiz mumkin. Unga ko'ra, Surayj Junayd bilan suhbatda bo'lganligi barokatidan qayerda majlis tutib so'z aytsa, so'zidan aholida ajib hol' paydo bo'lar edi.

Bunday misollar tazkirada ko'plab uchraydi. Ali ibn Bundor ibn Ibn ul-Husayn as-So'fiy as-Sayrafiy (126-o'rinda kelgan) zikrida kelishicha, Ali ibn Bundor bir kuni Shayx Abdulloh Hafif bilan bir tor ko'prikda yuzma-yuz kelib qoladi. Shayx nufuzi jihatidan ulug' bo'lsa ham unga "Ilgari yur!", deydi. Ali ibn Bundor buning sababini so'rganida, "Sen Junaydni ko'rubsen va men yo'q", deb javob beradi. Shayx ul-islom Abdulloh Ansoriy bu masalaga "Bu toifaga ulug' nisbat mashoyix diydoridir va pirlarning nisbati" deb izoh bergan.

Rasululloh solallohu alayhi va sallam Abdulloh Nabozoriy (266)ning tushiga kirib, "Yo Rasululloh! Qaysi qavm bila o'lturayin?" degan savolga, "*Darvishlar qavmi bilan o'tiring, boylar bilan emas*" deb bergan javoblari ham, ushbu toifa kishilarining Alloh va payg'ambarlar nazdida qanchalik ulug' ekanligini ko'rsatadi. Hatto Junayd Bag'dodiyning o'zi ham Abu Bakr Atufiyga (233) "Agar birovni ko'rsangizkim, bu toifaga imoni bor va bu so'zlar anga maqbuldur, deyingizki, u meni duo qilsun!" degani, mashoyixlarga hurmatda bo'lgan kishilar ulardan o'zi uchun duo so'rash darajasida ulug'lanishiga dalolatdir.

Navoiy ushbu fikrni davom ettirib, tazkirada quyidagilarni ham keltiradi: "Shayx ul-islom debdurki, Halloj "Ayni jam" kitobi oxirida debdurki: "Har kim bizning so'zlarga imoni bor va andin choshnisi bor, mendin anga salom deyingiz!" Va Shayx Amu debdurki: "Shayx Sirvoniy dedikim: "Agar ayog'ingiz bor esa, Xurosonga boring, ul kishi ziyoratig'akim, bizni sevgay!" (Ya'ni bizni sevgan kishilarni ziyorat qiling — P. S.). Va Shayx Abbos debdurki: "Sirvoniy dedikim: "Sizga vasiyat qilurmen, bir kishiga yaxshiliqqaki, bu toifani sevgay." (Ya'ni bu toifani sevgan kishilarga yaxshilik qilishni vasiyat qilaman. — P. S.)

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari tasavvufiy-badiiy tazkira bo'lishi bilan birga, islomiy tafakkur asoslariga suyanadigan mustahkam va barqaror manba hamdir. Asarda zikr etilgan avliyo siyratlari va ularning ruhiy kamolot yo'lidagi

tajribalari Qur'oni karim oyatlari va sahih hadislar bilan bevosita va bilvosita uyg'unlashtirilgan. Bu, Navoiyning nafaqat irfoniy tafakkurga, balki shariat asoslariga ham sodiq bo'lgan mutafakkir ekanini ko'rsatadi.

Tazkirada Qu'ron oyatlari va payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamning hadislaridan ko'plab o'rinlarda foydalanilishi, ular orqali so'fiylarning tutgan yo'llari, ruhiy kamolot bosqichlari, hayotiy tajribalarining yoritib berilishi Navoiyning diniy bilimlari chuqur va tizimli manbalar asosida shakllanganini ko'rsatadi. Shuningdek, so'fiylar o'rtasidagi ichki an'ana va qadriyatlar, usul va odob masalalari ham muallif nazaridan chetda qolmagan. Tazkiradagi ushbu jihatlarni o'rganish bizga tasavvuf ta'limotining asosi, eng avvalo, Qur'on va sunnatga tayanishini yaxshiroq anglashda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 1-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom, 2013. — 802 b.
- Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10-jild. — Toshkent: G'afur G'ulom, 2013.— 680 b.
- Навоий А. Насойим ул-муҳаббат. 15-том. — Тошкент: Бадиий адабиёт, 1968. — 225 б.
- Навоий Алишер. Насойимул муҳаббат мин шамойимил футувват. — Toshkent: Мовороуннаҳр, 2017. — 575 б.
- Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 17-том. — Т.: Фан, 2001.
- Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror. — Т.: G'afur G'ulom, 2006. — 400 b.
- Аттор Фаридуддин. Тазкират ул-авлиё. — Тошкент: Фафур Фулом, 2013. — 464 б.
- Хондамир Ғиёсиддин. Макоримул ахлоқ. — Т.: Фафур Фулом, 2015. — 206 б.
- Бертельс Е. Э. Навои и Джами. Избранные труды. Том 4. — М.: Наука, 1965. — 500 с.
- Eraslan Kemal. Nesayimü'l-mahabbe min şemayimi'l-fütüvve: 1.metin. — Ankara: Türk dil kurumu, 1996. — 493 s.
- Cami Abdurrahman. Nefahatü'l-ıns min hadarati'l-kuds. — İstanbul: Salih kitaplar, 2021. — 768 s.
- Kuşeyri Abdülkerim. Kuşeyri risalesi. — İstanbul: Semerkand, 2022. — 732 s.
- Олим С. Навоий асарларида Хожа Баҳоуддин Нақшбанд таърифи // Жаҳон адабиёти журнали, 3-сон, 2013. — Б. 152–162.
- Рамазонов Н. “Насойим”нинг ўзига хос хусусиятларига доир // Навоийнинг ижод олами (мақолалар тўплами). — Т.: Фан, 2001. — Б. 15–7182.

References

- Attar, F. (2013). *Tazkirat al-Avlie* [Tazkira of Saints]. Tashkent: Gafur Ghulam.
- Bertels, E. E. (1965). *Navoi i Djami* [Navoi and Djami]. In *Selected Works* (Vol. 4). Moscow: Nauka.

- Djami, A. (2021). *Nefahat al-uns min hadarat al-kuds* [The Breezes of Intimacy from the Presences of Holiness]. Istanbul: Salih Kitaplar.
- Eraslan, K. (1996). *Nesayim al-muhabbe min shemayim al-futuvve: 1-metin* [The Breezes of Love from the Sublime Traits of Chivalry: The First Text]. Ankara: Türk Dil Kurumu.
- Khondamir, G. (2015). *Makorim al-Akhlok* [Noble Morals]. Tashkent: Gafur Ghulam.
- Kusheyri, A. (2022). *Kusheyri risalesi* [The Treatise of al-Kusheyri]. Istanbul: Semerkand.
- Navoi, A. (1968). *Nasayim al-Muhabbat* [The Breezes of Love] (Vol. 15). Tashkent: Badii Adabiet.
- Navoi, A. (2001). *Mukammal asarlar tuplami* [The Complete Works] (Vol. 17). Tashkent: Fan Nashriyoti.
- Navoi, A. (2006). *Khayrat al-Abror* [The Wonder of the Righteous]. Tashkent: Gafur Ghulam.
- Navoi, A. (2013a). *Tula asarlar tuplami* [The Collected Works] (Vol. 3). Tashkent: Gafur Ghulam.
- Navoi, A. (2013b). *Tula asarlar tuplami* [The Collected Works] (Vol. 10). Tashkent: Gafur Ghulam.
- Navoi, A. (2017). *Nasayim al-muhabbat min shamoyim al-futuvvat* [The Breezes of Love from the Sublime Traits of Chivalry]. Tashkent: Movarounnahr.
- Olim, S. (2013). Navoi asarlarida Khozha Baxouddin Naqshband ta'rifi [Description of Khozha Baxouddin Naqshband in Navoi's works]. *Journal of World Literature*, (3), 152–162.
- Ramazonov, N. (2001). Nasayimning uziga xos xususiyatlariga doir [On the specific features of "Nasayim"]. In *Navoi's Creative World* (pp. 157–182). Tashkent: Fan.